



SIRDARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI BUYRUG'I

11 sentabr 2024 yil.

13-ICH-son

Sirdaryo viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarma huzurida jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 4 iyuldagi PQ-3837sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 4 iyuldagi PQ-3837sonli Qaroriga muvofiq har bir vazirlik va idoralar huzurida jamoatchilik kengashlarining tuzilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarma (keyingi o'rinlarda – boshqarma) hamda keng jamoatchilik o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish, boshqarma faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, boshqarma faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik institutlari bilan samagali hamkorligini ta'minlash maqsadida, boshqarma huzuridagi jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda – jamoatchilik kengashi) tarkibi 1ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahatkengashi organi hisoblanishi belgilansin.

4. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom 2 ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning kambag'allikni qisqartirish va bandlik yo'nalishidagi qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, boshqarma zimmasiga yuklatilgan davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'uobga chiqarish bo'yicha boshqarma va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, boshqarmaning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun ko'maklashish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga dahl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan vazirlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli o'rganish va tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish;

boshqarma faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan kuzatuvlar o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

boshqarma faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni kuzatish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshqarma faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shartsharoitlarni o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshqarma faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

boshqarma xodimlarining uujou, ijtimoiy-maishiy, xizmat sharoitlarini, ularga malakali tibbiy uordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarini tahlil qilish hamda uning yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

6. Jamoatchilik kengashiga quyidagi huquqlar berilsin:

boshqarma tomonidan tashkil etiladigan ochiq Hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risida axborotni oldindan olish va mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

boshqarma va tasarrifidagi tashkilotlarining binolari (xonalari) hamda boshqa ob'ektlarini boshqarma bilan kelishilgan holda borib ko'rish;

boshqarma va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

boshqarma faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vazirlikning axborotlari, statistika va boshqa ochiq ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish;

boshqarmaning qonun ijodkorligi faoliyatida, davlat organi sifatida ishlab chiqilgan normativ huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga boshqarma tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

boshqarma xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

jamoatchilik kengashi majlislari muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish us'hun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

7. Boshqarmada nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha mas'ul etib Axborot xizmati boshlig'i boshqarmaning matbuot kotibi B.Mavlonov belgilansin.

8. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'basini (Qahhorov) mazkur buyruqni boshqarma tasarrufidagi bars'ha tashkilot va muassasalarga ma'lumot va ijro us'hun yetkazish choralarini ko'rsin.

9. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



Sh.Yakubov

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasining
2024-yil "11" sentabrdagi

13-ICH-sonli buyrug'iga
1-ilova

**Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasi huzuridagi jamoatchilik kengashi
TARKIBI**

№	F.I.O	lavozimi
1	M.Abdurahmonov	Davlat mehnat nazorati inspektori
2	R.Bektemirov	Nuroniyl jamg'armasi Sirdaryo viloyat bo'limi xodimi
3	A.Shernazarov	"Xalq so'zi" gazetasining Sirdaryo viloyati bo'yicha muxbiri
4	B.Boymurodov	"Yangi Sirdaryo", "Новая Сырдарья" gazetalari bosh muharriri
5	A.Eshonxonov	Sirdaryo Teleradiokompaniyasi muxbiri
6	B.Ummatov	"Yuksalish" umummilliy harakati Sirdaryo viloyati bo'linmasi xodimi
7	M.Madraximov	Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasining
2024-yil "11" sentabrdagi

13-ICH-sonli buyrug'iga
2-ilova

**Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi
NIZOM**

I. bob. Umumiu qoidalar

1. Mazkur Nizom Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi huzuridagi jamoatchilik kengashi (keying o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi deb yuritiladi)ning asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengashi organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi boshqarma huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati boshqarmaning bars'ha hududiy bo'limlari hamda tasamrfiy tashkilotlariga tadbiq etiladi.

4. Jamoatchilik kengashi Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom va unga kiritiladigan o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**II. bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari,
funktsiyalari va majburiyatlari**

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan nonnativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolaming, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, boshqarma zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga dahl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga

oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha boshqarma va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, boshqarmaning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axorot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun boshqarmani fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

boshqarmaga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga dahl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan boshqarmaning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

boshqarma faoliyatida korupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

boshqarma faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshqarma faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ishlarni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

boshqarma faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan taklitlar ishlab chiqish;

boshqarma xodimlari va ular oilalagining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olipgan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi :

Boshqarma faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda mugojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha boshqarmaga tegishli taktiflar kiritadi;

boshqarmaning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

boshqarma faoliyatiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar

ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni boshqarma xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va davlat organi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

boshqarmaga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni ko'rib chiqadi;

boshqarma raharlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

boshqarma xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashadi;

xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha davlat organi xodimlari o'rtasida keng tushuntirish ishlagini tashkil etadi;

boshqarmada, uning hududiy bo'limlarida va tasarrufidagi tashkilotlarida sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni davlat organi faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

boshqarma faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy kopferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

boshqarma faoliyatini ommaviy axorot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axorot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

Boshqarma tomonidan tashkil etiladigan ochiq Hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish va mazkur tadirlarda ishtirok etish;

Boshqarmaning, jumladan uning hududiy bo'limlari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonolari) va boshqa ob'ektlarini boshqarma bilan kelishilgan holda borib ko'rish;

boshqarma, uning hududiy bo'limlari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

boshqarma faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqarma axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

boshqarmaning qonun ijodkorligi faoliyatida, boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yugidik shaxslar murojaatlariga boshqarma tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

boshqarma xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11 . Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

boshqarma faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

boshqarma va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

boshqarma va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

II. bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

12. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari kiradi.

13. Jamoatchilik kengashi a'zoriga, qoida tariqasida, boshqarmada namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy

tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni cheklanmagan.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i buyrug'i bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;

jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida boshqarmaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

17. Jamoatchilik kengashining raisi:

jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

boshqarmaning rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i bilan hamkorlik qiladi;

jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

rais yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi:

jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishni tashkil etadi;

jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolagi:

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun vazirlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejaları bajarilishini ta'minlaydi;

boshqarma faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

boshqarma xodimlari, ulartitg oila a'zolari iilat uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni jamoatchilik kengashiga kiritadi;

jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejalari asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok etolmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i, uning o'rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilingan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

29. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda boshqarmaga, jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Boshqarma jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

IV. bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash boshqarma tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvoliq ekanligi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik bosh boshqarmasining
2024-yil "11" sentabrdagi
13-ICH-sonli buyrug'iga
3-ilova

**Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi huzuridagi
jamoatchilik kengashining 2024-yilga mo'ljallangan
ISH REJASI**

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Ijro etish muddafi	Mas'ul ijrochilar
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "Ўзбекистон-2030» стратегиясини «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmonida vazirlikka yuklatilgan vazifalar va topshiriqlarni ijrosi to'g'risida.	2024-uyI davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, boshqarmaning tegishli sho'balari
2	2024-yil choraklar kesimida bandlik bo'limlariga murojaat qilgan shaxslarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar holati to'g'risida	2024-uyI davomida har chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari, boshqarmaning tegishli sho'balari
3	Ishsiz va kambag'al fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tahlil etish va qo'shimcha shora-tadbirlarni ko'rib chiqish to'g'risida	2024-uyI 2-3 chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Kasbga o'qitish va Malaka tizimini rivojlantirish sho'basi
4	Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida	2024-uyI 4-chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari, boshqarmaning tegishli sho'balari
5	Fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya etilishni va ularni himoya qilishni, shuningdek, xavfsiz shart-sharoitlar va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash, majburiy mehnatga uo'l qo'ymaslik va uni to'liq bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan shora-tadbirlar to'g'risida.	2024-uyI 4-chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi
6	Boshqarma faoliyatiga bag'ishlangan davra suhbatlari, seminarlar, brifing, matbuot anjumanlarini tashkil etish va o'tkazilishi to'g'risida	2024-uyI 4-chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari, boshqarmaning tegishli sho'balari, Axborot xizmati
7	Jamoatchilik kengashining 2024-yil IV choragi faoliyati yakunlari va 2025-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalari to'g'risida.	2024-uyI 4-chorak	Jamoatchilik kengashi a'zolari